

FRAZEOLOGIZMLAR MURAKKAB ILOVALI QURILMA HOSIL QILUVCHI KOMPONENT SIFATIDA

M.A.Kuchiyev

SamDCHTI katta o'qituvchisi.

Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida asosiy e'tibor tilning real, aniq vazifalarini o'rganishga, lingvomadaniy va kommunikativ-sintaktik jihatlariga qaratilmoqda. Bu esa tilning barcha sohalarini chuqur va mukammal bilishga hamda tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan chet tilini o'rganish jarayonida gapning struktural-semantik jihatlar bilan bir qatorda uning ma'noviy va uslubiy xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu maqolada frazeologizmlarni murakkab ilovali qurilma hosil qilishdagi o'rni haqida so'z yuritmoqchimiz.

Tilshunoslik sohasidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiyalar murakkablashish xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday murakkablashish jarayonida ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bittadan ortiq bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq ilovali elementlardan tashkil topgan sintaktik qurilmaga murakkab strukturali ilova konstruksiya deb ataladi.

Ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda asosiy gap(ifoda)ning strukturasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. «Sodda strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy ifodada ham, ilova qismida ham bir xil bo'lishi lozim, ya'ni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi talab qilinadi; murakkab strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar esa, ham asosiy ifoda tarkibida, ham ilova qismida ikkitadan kam bo'lmasligi lozim. [Mamasoliyev 2022:78-80]

Demak, murakkab strukturali konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan ilovali elementlarning miqdori baravariga oshishi kerak, ya'ni ikkitadan kam bo'lmasligi lozim. Shu o'rinda, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda ularning lingvistik mohiyatiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham ilovali elementlarning aytilgan fikrlarga qo'shimcha ma'no, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Ko'rinadiki, bunday ilovali elementlarning miqdori bittadan ortiq bo'lgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Bu kabi konstruksiyalarga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Pech mit dem Wetter. Es regnete in Strömen und die Spiele mussten immer wieder unterbrochen werden (rundschau-online.de, 21. 8. 2001)

Ushbu misolda asosiy ifoda (Pech mit dem Wetter) ga ikkita ilovali element (1. Es regnete in Strömen. 2. die Spiele mussten immer wieder unterbrochen werden) birikib, asosiy ifodani to'ldirib, aniqlashtirib keladi. Natijada murakkab strukturali ilova konstruksiya hosil bo'ladi. Bu yerda yozuvchi tasvirlayotgan voqeaga alohida urg'u berib,

uning ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'ziga xos sintaktik-stilistik hodisa-ilova hodisasiga murojaat qiladi. Ushbu ilova konstruksiya yozuvchining individual uslubi mahsuli sifatida yuzaga keladi, bunda alohida ta'kidlash namoyon bo'ladi.

Ilova konstruksiya tarkibida asosiy gapga qo'shimcha sifatida birikib kelayotgan ilovali elementlarning miqdor jihatdan ortib borishi quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni ma'lum darajada soddalashtiradi;
2. Bu voqea-hodisalar mazmunining kitobxon tomonidan tushuntirilishi osonlashtiradi;
3. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta'sirchanligini oshiradi.
4. Asosiy ifodaning mazmunini to'ldirib, aniqlashtirib keladi.

Ta'kidlash kerakki, murakkab strukturali ilova konstruksiya komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar ham turli xil ko'rinishlarga ega; ko'p hollarda bir-biri bilan munosabatga kirisha oladigan so'zlar yordamida; ilova konstruksiya tarkibida biron-bir leksik birlikning takrorlanishi bilan; ayrim bog'lovchilarning qo'llanishi orqali; asosiy ifoda vazifasida keladigan bosh bo'laklarning sintaktik-semantik yaxlitligi bilan ifodalanadi.

Ilovali elementlar asosiy kommunikativ funksiyalari asosiy ifoda tarkibida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni konkretlashtiradi, to'ldiradi va reallashtiradi.

Ilovali elementlar tarkibida keluvchi ba'zi bir komponentlarning o'ziga mos o'rinda kelmasligi ularning sintaktik funksiyalarini amalda kuchaytiradi, natijada tasvirlanayotgan voqea-hodisaning ta'sirchanligi oshadi. Ilovali element tomonidan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalarning oldin umumlashganini, keyin esa yana konkretlashganini ilovali elementlarning stilistik funksiyalarini boyitishga xizmat qiladi [Ахмедова 2000: 56-57].

1.Ein Ausflug! Mit Kind und Kegel, eingepackten Brotzeiten – und ganz ohne Politik (Kühn, Zeit 113).

2. Es ist jetzt acht Uhr. Es wird Zeit. Wir müssen uns auf die Lappen machen (Sobota, Minus-Mann 189).

Ko'rinishi jihatdan keyingi misollarda bayon qilingan ilovali elementlar № 1-, 2-raqamli misollardagi ilovali elementlarni takrorlab kelganday. Umuman olganda, bu ilovali elementlar ham murakkab strukturaviy ilovali elementlardir. Biroq, kommunikativ funksiyalari nuqtai nazaridan qandaydir o'zlariga xos xususiyatga ega. Bu xususiyat №1-raqamli misoldagi ilovali elementning konkretlashtirish va o'sha misoldagi ilovali elementning umumlashtirish xarakteriga ega bo'lishi bilan ifodalandi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyat, ularning asosiy ifodaga nisbatan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalarini faqatgina konkretlashtiribgina qolmasdan, balki uni umumlashtirishi ham mumkin. Ilovali elementlar kommunikativ funksiyalarining bunday variantivligi, asosan ba'zi leksik-grammatik komponentlarning joy almashinishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday vaziyat ilovali elementlarning ham stilistik, ham sintaktik funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi [Реферовская 1983:122]

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, ilovalari elementlar asosiy ifodaning yoki uning biron bir bo'lagini konkretlashtirib, to'ldirib, izohlab va reallashtirib keladi.

Frazeologizmlar ilova qurilma tarkibida xilma - xil uslubiy funksiyalarni ham bajarib kelishlari mumkin. Ularning uslubiy funksiyalari asosan gap strukturasini murakkablashtirib, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta'sirchanligini, badiiyligini, jonliligini oshirish; tasvirlanayotgan voqea-hodisaga kitobxonning diqqat e'tiborini jalb qilishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ахмедова Б. М. К вопросу изучения порядка слов в современном немецком языке. Вестник, Каз ГУ. Серия филологическая №37. -Алматы, 2000. С. 56-57.
- 2.Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилистик – прагматик функциялари. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 2022. – 166 б.
- 3.Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста.Л.Наука.1983-216 с.
- 4.Турсунов Б. Т. Мураккаб синтактик конструкцияларни ўрганишга доир. Халқаро илмий конференция материаллари тезислари (2002 йил 14-15 март, Самарқанд). -Самарқанд. 2002. –Б.76-77.
- 5.Kühn, August: Zeit zum Aufstehn. Frankfurt a. M.: S. Fischer Verlag, 1975.
- 6.Sobota, Heinz: Der Minus-Mann. Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1978.
7. rundschau-online.de, 21. 8. 2001
6. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 677-681.
7. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации неперевожимой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192
8. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o 'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innovatsje.*, 24, 56-59.
9. Назарова, Ш. (2017). О масштабе реализации феномена транспозиции. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(3 (64)), 83-87.
10. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'lg'in o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
11. Баёнханова, И. Ф. (2023). Нуткий мулоқот одобини ифодаловчи махоллар (ўзбек ва корейс тиллари мисолида). *Инновации: Журнал социальных наук и исследований* , (1), 211–214.
12. Kamarova, M. (2022). Koreys va o'zbek tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali so'z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta'limda foydalanish. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.

13. Вахабова, М. Т. (2023). Сопоставительный анализ ключевой лексики-репрезентанта (имени) концепта «мать» в русском, корейском и узбекском языках (на материале словарей). *Journal of Integrated Education and Research*, 2(3), 52-57.
14. Вахабова, М. Т. (2023). Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(6), 101-103.